“KICHKINA SHAHZODA” ASARIDA TABIAT TASVIRI VA FALSAFIY TALQIN

Fozilova Mohigul Farxodovna

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti

O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti,

pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

comhttps://orcid.org/0009-0001-9464-6480

Annotatsiya. Mazkur maqolada Antuan de Sent-Ekzyuperining “Kichkina shahzoda” asarida tabiat tasvirining badiiy matn strukturasidagi o‘rni, uning semantik, stilistik va kompozitsion xususiyatlari tahlil qilinadi. Tabiat manzaralarining syujet, kompozitsiya, obrazlar tizimi hamda til va uslub bilan uzviy bog‘liqligi ilmiy asosda yoritiladi. Shuningdek, tabiat tasvirini o‘qitishda innovatsion va interfaol metodlarning didaktik imkoniyatlari ochib berilib, o‘quvchilarning badiiy tafakkuri, estetik idroki va ko‘p yo‘nalishda fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi ahamiyati asoslanadi.

Kalit so‘zlar: *tabiat tasviri, badiiy matn, falsafiy talqin, adabiy tahlil, kompozitsiya, obrazlar tizimi, kreativ metodlar, interfaol yondashuv, estetik tafakkur, ijodiy fikrlash*

Annotation. This article examines the role of landscape descriptions in the structure of a literary text based on the example of The Little Prince by Antoine de Saint-Exupéry. It analyzes the semantic, stylistic, and compositional features of nature imagery, as well as their connection with the plot, the system of characters, and linguistic means. Special attention is given to the methodology of teaching landscape elements through innovative and interactive approaches that contribute to the development of students’ aesthetic perception, analytical skills, and creative thinking.

Keywords: *landscape, literary text, philosophical interpretation, literary analysis, composition, system of images, creative methods, interactive learning, aesthetic thinking, creative thinking*

Аннотация. В данной статье рассматривается роль пейзажных описаний в структуре художественного текста на примере произведения Антуана де Сент-Экзюпери «Маленький принц». Анализируются семантические, стилистические и композиционные особенности образов природы, их связь с сюжетом, системой персонажей и языковыми средствами. Особое внимание уделяется методике преподавания пейзажных элементов с использованием инновационных и интерактивных методов, способствующих развитию эстетического восприятия, аналитического и творческого мышления учащихся.

Ключевые слова: *пейзаж, художественный текст, философская интерпретация, литературный анализ, композиция, система образов, креативные методы, интерактивное обучение, эстетическое мышление, творческое мышление*

Jamiyatda yuz berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar hamda ilmiy sohadagi taraqqiyot nafaqat ta’lim-tarbiya siyosatining, balki bugungi adabiyotshunoslik tadqiqotlarining ham ma’naviy yo‘nalishini belgilab bermoqda. Zero, zamonaviy adabiyot endilikda insonni faqat estetik zavq bilan cheklab qolmay, balki uni ma’naviy idrok, ruhiy kamolot va o‘zligini anglash sari yetaklovchi muhim omil sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Adabiyot inson tafakkurining eng yuksak ifodasi bo‘lib, u nafaqat estetik zavq bag‘ishlaydi, balki insonning ruhiy olami, ichki kechinmalari, orzu-umidlari va ideallarini ham teran aks ettiradi. Inson aynan adabiyot orqali o‘zini anglaydi, turli obrazlar, timsollar hamda badiiy ifodalar vositasida o‘z ichki dunyosini kashf etadi. Shu bois har bir badiiy asarni inson ruhiyatining o‘zini anglash yo‘lidagi sayohati sifatida talqin etish mumkin.

“Kichkina shahzoda” asari ham ana shunday chuqur ruhiy va ma’naviy izlanish mahsuli hisoblanadi. Unda insoniy fazilatlar, axloqiy qadriyatlar hamda ruhiy poklik ramziy obrazlar orqali ifoda etilgan. Muallif ramzlar tizimi yordamida o‘quvchini hayotning mazmuni, sevgi, sadoqat va poklik kabi muhim tushunchalar ustida mushohada yuritishga undaydi.

Bugungi globallashgan axborot makonida inson qalbining qadri, halollik, mehr va samimiyat kabi fazilatlar asta-sekin so‘nib borayotgan bir sharoitda “Kichkina shahzoda” asarining ahamiyati yanada ortib bormoqda. Zero, undagi har bir obraz zamonaviy insonning ichki dunyosi bilan uzviy bog‘liq holda talqin etiladi: Qirol — hokimiyatga intilgan shaxsni, Ichuvchi — hayotdan qochishga moyil insonni, Savdogar — manfaatparastlikni, Tulki — donolik va sadoqatni, Gul esa — sevgi hamda mas’uliyatni ifodalaydi.

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi — asarda aks etgan allegorik qahramonlarning badiiy mohiyatini ilmiy asosda tahlil qilish, ularni hayotiy voqeliklar bilan qiyoslash orqali inson ruhiy olamini yanada chuqurroq yoritishdan iborat.

Adabiy tahlil va badiiy matn strukturasi adabiyotshunoslikning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, ayniqsa **tabiat tasvirining badiiy asardagi o‘rni va vazifasini ochib berishda** alohida ahamiyat kasb etadi. Tabiat tasviri orqali asarning mazmuni va shakli o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik yanada yorqin namoyon bo‘ladi.

Badiiy matnda tabiat manzaralari o‘ziga xos strukturaviy tizim sifatida namoyon bo‘lib, ular syujet rivoji, kompozitsiya yaxlitligi, obrazlar ruhiyati hamda til va uslub vositalari orqali ifodalanadi. Tabiat tasviri nafaqat fon vazifasini bajaradi, balki qahramonlarning ichki kechinmalarini ochish, muhitni jonlantirish va badiiy g‘oyani chuqurlashtirishga xizmat qiladi.

Zamonaviy adabiyotshunoslikda badiiy matnni o‘rganishda, ayniqsa tabiat tasvirini tahlil qilishda innovatsion metodlardan, jumladan interfaol yondashuvlardan foydalanish muhimdir. Bunday metodlar o‘quvchilarning nafaqat matnni chuqur anglashiga, balki ularning estetik didi va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga ham yordam beradi.

Ushbu maqolada tabiat tasvirining badiiy matn strukturasidagi o‘rni, uning asosiy komponentlari hamda ularni o‘rganish metodologiyasini yoritadi.

Badiiy matnda tabiat tasviri asarning chuqur mazmunini ochishda muhim vosita hisoblanadi. Bu jarayonda quyidagi asosiy elementlar o‘rganiladi:

syujet bilan uyg‘unlashgan tabiat manzaralari;

kompozitsiyada tabiat tasvirining joylashuvi va funksiyasi;

obrazlar ruhiyati bilan bog‘liq tabiat ifodalari;

til va uslub vositalari orqali yaratilgan tasviriylik.

Quyidagi jadvalda tabiat tasvirini o‘rganishga oid kreativ yondashuvlar va misollar keltiriladi.

Asosiy jihati	Tabiat tasvirini ifodalovchi metodlar	Tabiat tasviriga oid misollar
Syujet	**“Tabiatni qayta tasvirlash” usuli** – o‘quvchilar asardagi tabiat manzarasini boshqa fasl, boshqa muhit yoki boshqa kayfiyatda qayta yozadilar.	“Kichkina shahzoda”dagi cho‘l manzarasini bahor fasliga ko‘chirib, qanday o‘zgarishini tasvirlash.
Kompozitsiya	“Tabiat markazli kompozitsiya” – asardagi voqealarni tabiat holatiga qarab joylashtirish (masalan, yomg‘ir → muammo, quyosh → yechim).	Hikoyani “yomg‘irli kun” bilan boshlash va “quyoshli tong” bilan tugatib, mazmun o‘zgarishini tahlil qilish.
Obrazlar tizimi	“Tabiat va qahramon bog‘liqligi xaritasi” – qahramon kayfiyati va tabiat holatini grafik bog‘lash.	Qahramon xafa → yomg‘ir; xursand → quyosh. Diagramma chizish orqali tahlil qilish.
Til va uslub	“Tabiat so‘zlari assotsiatsiyasi” – tabiatga oid so‘zlar orqali yashirin ma’no topish.	“Shamol” → erkinlik; “tuman” → noaniqlik; “gul” → sevgi. Shu asosda matnni talqin qilish.

Ushbu yondashuvlar badiiy matnni yanada chuqur anglashga va tahlil qilishga yordam beradi. Matnga turli burchaklardan qarash orqali asarning ijodiy jihatlari ochib beriladi va o‘quvchilarning analitik fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi.Badiiy matnda ifodalangan tabiat

tasviri berilgan o‘rinlarni o‘quvchilar tushunish orqali yozuvchining maqsadini anglaydilar. Kitobxon tabiat tasvirlari asar syujeti va asar qahramonlarining his-tuyg‘ularini tushuna oladi.

“Tabiatni his qilish” metodi– O‘quvchilar matnni o‘qiydi, ko‘zini yumib manzarani tomosha qiladi, Ko‘zini yumib his qilgan hodisalarni yozadi va bu orqali emotsional tafakkuri rivojlanadi.

“Tabiat orqali falsafiy savol” metodi – O‘qituvchi o‘quvchilarga quyidagi savollar bilan murojaat qilishi mumkin. “Nega cho‘l yolg‘izlik ramzi?”, “Nega yulduzlar umidni bildiradi?” Bunday savollar o‘quvchining falsafiy fikr yuritishga undaydi.

“Tabiatni jonlantirish” usuli – Asarda ifodalangan tabiat elementlari: shamol, daraxt, yomg‘irdir. Ushbu tabiat elementlari rol sifatida o‘quvchilarga beriladi, o‘quvchilar tabiat hodisalari nomidan gapiradi. Bunday usul orqali o‘quvchining kreativ tafakkuri rivojlanadi.

“Tabiatni o‘zgartir” – O‘quvchilarni ko‘p variantli va ijodiy fikrlashga undaydigan savol va topshiriqlar bilan murojaat qilish mumkin. Masalan, “Mazkur hikoyadagi yomg‘ir nimani anglatadi?” O‘quvchilar “yomg‘ir ob-havo yoki tabiatning bir hodisasi” deb javob berishlari mumkin. Ammo ijodiy va ko‘p varaintli fikrlash ko‘nikmalari shakllantirilgan o‘quvchilar “yomg‘ir- qayg‘u, tozalanish, umid” kabi javoblarning berishlari bu hayotda muammolarning yechimini turli variantlar orqali hal eta olishlaridan dalolat beradi.

Badiiy asarlarda tabiat tasvirini tahlil qilish va uning strukturasini o‘rganish zamonaviy filologiyaning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu jarayon tabiat manzaralarining semantik, stilistik hamda kompozitsion xususiyatlarini chuqur anglash imkonini beradi. Tabiat tasvirini o‘rganishda innovatsion metodlardan foydalanish o‘quvchilarning adabiyotga bo‘lgan qiziqishini oshirib, badiiy matnning ichki mohiyatini yanada teranroq idrok etishga xizmat qiladi. Kreativ yondashuvlar, xususan, tabiat manzaralarini turli nuqtayi nazardan talqin qilish, ularni zamonaviy kontekstda qayta ifodalash yoki muqobil tasvirlar yaratish o‘quvchini matnni passiv qabul qilishdan chiqarib, faol fikrlashga undaydi. Bunday usullar yordamida tabiat tasvirlari ko‘p qirrali tarzda tahlil qilinadi va bu jarayon o‘quvchilarning badiiy hamda estetik tafakkurini rivojlantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek, tabiat tasvirini interfaol o‘rganish metodlari — manzara xaritalash, tabiat obrazlari bilan “muloqot” (intervyu) tashkil etish hamda ularni turli sharoitlarda qayta talqin qilish kabi usullar badiiy matndagi tabiatning nafaqat estetik, balki falsafiy va ijtimoiy mazmunini ochib berishga yordam beradi. Bu esa o‘quvchilarning ijodiy yondashuvini shakllantirib, ularning tahliliy va ko‘p yo‘nalishda fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jo‘rayev N. “Adabiyotshunoslik asoslari” –Toshkent: Fan, 2019.
2. Rasulov S. “Badiiy matn va uning poetik strukturalari” –Toshkent: Ma’naviyat, 2021.
3. Qo‘chqarov A. “Zamonaviy adabiy tahlil usullari” –Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2020.
4. Karimov B. “O‘zbek adabiyotida yangi tendensiyalar” –Toshkent: Sharq, 2022.